Jahonda jadal ravishda ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojlanayotgan bir davrda moliyaviy sektorlarning o'rni beqiyos. Bu sohani rivojlantirish va yangi manbalar bilan boyitishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shu bois hozirda jahonda keng ko'lamma tarqalib va rivojlanib kelayotgan islam moliyasini mamlakat milliy bozorida joriy etishga e'tibor berilmoqda. Islomiy bank modeli dunyoning turli mamlakatlaridagi musulmon va dunyoviy ko'plab tashkilotlar tomonidan muvaffaqiyatlari amalga oshirilmoqda. Islomiy banklar foyda va xatarlarni taqsimlash tamoyillari bilan birlashtirilgan axloqiy me'yordi bilan mijozlarni jalb qilmoqda.

Dunyo bo'ylab islam moliya bozori umumiy jahon moliya bozorining 4% ni tashkil qiladi va Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, "Butunjahon Islom moliyaviy aktivlari miqdori 4 trillion AQSh dollarini tashkil etadi va yiliga 15-20% ga o'sib bormoqda" [1]. Islom moliya tizimini shariatda bayon etilgan asosiy tamoyillarni buzmasdan iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishga imkon beradigan moliya institutlari va ular tomonidan foydalananadigan moliyaviy vositalar to'plami sifatida tavsiflash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Mamlakatimizda islam moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqt-soati yetib keldi" [2]. Shu munosabat bilan mamlakatimizda Islom iqtisodiyoti va moliyasining nazariyi va amaliy jihatlarini o'rganish uchun zaruriyat vujudga



keldi. Shuningdek, Prezidentimizning “O’zbekiston–2030” strategiyasi tog’risidagi PF-158-sonli Farmonida ham ushu sohani rivojlantirish asosiy maqsadlardan biri ekanligi alohida ta’kidlandi [3]. Ushbu strategiyada bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlar bozori hajmini oshirish va sohada raqobatlarni rivojlantirish maqsadida kamida 3 ta bankda islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etish, islom moliyasining qonuniyi asoslarini shaklantirish vazifasi belgilandi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Dunyoga mashhur olim Muhammad Taqi Usmoniy o’zining ilmiy nashrlarida ta’kidlaganidek, islomiy moliya korxonalar va jismoniy shaxslarning shariat yoki islom qonunlariga muvofiq kapitalni qanday jalg qilishini anglatadi. Shuningdek, u ushu qonun shaklida ruxsat etilgan investitsiyalar turlarini ham nazarda tutadi. Islomiy moliya ijtimoiy mas’uliyatli investitsiyalarning noyob shakli sifatida qaralishi mumkin [4].

S.M.Xasan uz-Zaman: islom iqtisodiyoti bu fiqqiy xukumlar va qonun qoidalarning amalga tatbiq etilishi bo’lib, u insonlarning talablarini qondirish uchun iqtisodiy resurslardan noto’g’ri va isrofgarchilik bilan foydalanishning oldini olishi haqida ta’kidlagan [5].

O.T.Astanakulov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarida dunyo musulmon aholisining soni va daromadlari oshishi, iqtisodiy moliyaviy inqirozlarga nisbatan chidamliliqi, islom banklariga, va umuman, islom diniga dunyo xalqlarining qiziqlishi va boshqa bir qancha omillar sababidan Islom moliya tizimining ahamiyati kundan-kun oshib borayotganiga alohida e’tibor qaratilgan [6].

A.Tursunov o’z ilmiy ishlardida islom moliyasi keng ko’lamli moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni o’z ichiga olgan atama ekanligini ta’kidladi. Ko’p jihatdan Islomiy moliya mahsulotlari an’anaviy mahsulotlarga o’xshaydi. Buning ajablanarli joyi yo’q, chunki ularning asosiy maqsadlari bir xil: pulga muhtoj bo’lgan kishi tomonidan ishlataladigan pulga ega bo’lgan kishi tomonidan investitsiyalarni yengillashtirish [7].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuni ilmiy o’rganish, mantiqiylik, tahlil va tadqiq etish jarayonida tizimli tahlil va ilmiy abstraktsiya kabi usullardan foydalananilgan. Maqolada, islom moliyasi rivojlanishining joriy holati va uning global iqtisodiyot sharoitida tutgan o’rni, mamlakat milliy iqtisodiyotida islom moliyasini roli va ahamiyatiga mos ravishda ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar berilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Islom moliya tizimi – islom huquqi, boshqacha qilib aytganda, shariat qonun qoidalari asosida tashkil etish va yuritishga asoslangan moliya tizimidir, ya’ni bu tizimdagi barcha amaliyotlar va operatsiyalar masalan deposit qo’yish, kredit olish va boshqa barcha amallarni bajarish ham shariat ko’rsatmalariga mos ravishda olib boriladi.

O’tgan davr davomida islom moliyasi tizimining hajmi ancha kengaydi. Hozirgi paytda butun dunyo Islom moliya institutlarining soni 700 dan ziyod. 1990-yillarning o’talarida Islom moliya tizimi faqat yaqin Sharq va Malayziyada mavjud bo’lib, Islom moliyaviy tashkilotlar soni 144 ta, aktivlarining yig’indisi esa 150 mlrd. AQSh dollari atrofida edi [8]. Vaqt o’tishi bilan Islomiy moliya me’yoriy asosga ega bo’ldi, natijada Islomiy moliya institutlari, halol fond indekslari va shariat qonunlariga mos keladigan moliyaviy vositalar paydo bo’lishni boshladi.

Islom moliyasining asosiy tamoyillaridan biri bu riboning depozitlar va qarzlar bo’yicha foiz shaklida daromad olishdan bosh tortishdir. Ribo (sudxo’rlik) – bu, xususan, kreditlar va depozitlar bo’yicha foizlarni o’z ichiga olgan har qanday asossiz o’sish (qo’shimcha to’lov) hisoblanadi.

Islom qonunlariga ko’ra, savdo, ishlab chiqarish, investitsiyalardan daromad olish maqsadida faqatgina real iqtisodiy faoliyat orqali erishish mumkinligi ta’kidlangan. Qimor o’ynilariga teng faoliyat orqali olingan daromad musulmonlar tomonidan ruxsat etilmagan. Shu munosabat bilan, maysir tushunchasini – arabchadan so’zmaso’z tarjima qilganda – “qimor”, tasodif natijasida foyda olish, bunga lotereya o’yini, derivativlar bo’yicha foyda olish va moliyaviy bozorlarda ochiqchasiga spekulativ xatti-harakatlarni misol keltirsak bo’ladi [9].

Shuningdek, Islomda sotuvchi egalik qilmaydigan, mavjud bo’lмаган mol-mulkni sotish bo’yicha bitimlar taqilanganadi. Bunda g’arar “xavf” – shartnoma predmetidagi noaniqlik yoki tasodifiylilikni tushunishimiz mumkin. Kundalik ma’noda, bu dengizda hali ushlanmagan baliqlarni, daraxtda hali pishmagan mevalarni yoki hali tug’ilmagan buzoqni sotib olish va sotish mumkin emasligini anglatadi. Moliyaviy jihatdan, fyucherslar, opsiyon, svoplar va boshqa derivativlar haddan tashqari noaniqlik bilan bog’liq bo’lgani uchun katta yoqotishlarni keltirishi mumkin. Shuni ta’kidlash joizki, shariat g’ararni to’liq taqiqlamaydi, chunki noaniqlik xavf bilan bog’liq va xavf har qanday shartnomaning elementidir. Faqat haddan tashqari, asossiz g’arar joiz hisoblanmaydi.

Islom moliya sanoatining hozirgi holati global moliyaviy xizmatlar bozorida faoliyat yuritadigan islom moliya institutlarining uchta asosiy segmentini – islom banklari, investitsiya fondlari va sukukni ajratib ko’rsatishga imkon beradi, bu sohaning umumiyligi aktivlarining 99,6 % tashkil qiladi (1-jadval).



### 1-jadval: Islom moliya bozori ulushi taqsimoti (2021) [10]

Sektor	Jami aktivlar (milliard AQSh dollar)	Ulush (%)	Institutlar soni/ Instrumentlar
Islom bankchiligi	2,765	70%	566
Takaful	73	2%	335
OIFIs	169	4%	778
Sukuk	713	18%	4,426
Islomiy fondler	238	6%	1,903

Islom banki islom moliya sanoatidagi eng yirik sektor bo'lib, uning aktivlari 2,765 trillion AQSh dollar yoki barcha islom moliyaviy aktivlaridan 70 % tashkil etadi. Hozirda 520 dan ortiq islom banklari, shu jumladan "Islomiy darchalar" dunyoning 72 dan ortiq mamlakatlarda o'z faoliyatini olib bormoqda.

Islomiy moliya institutlari o'z mijozlariga odatda ikki guruhga bo'linadigan turli xil moliyalashtirish mexanizmlarini taklif qilishadi:


- 1) foyda va zararni taqsimlashga asoslangan shartnomalar yoki investitsiyalarni moliyalashtirish usullari (mudoraba, mushoraka);
- 2) qarz asosida moliyalashtirishga (murobaha, ijara, salam, istisno va sukuk) asoslangan shartnomalar (2-jadval).

### 2-jadval: Islomiy moliyaviy vositalarining asosiy turlari [11]

Vositalar turlari	Tavsifi
Mudoraba (Ishonchli moliyalashtirish)	Sherikchilikning alohida shakli bo'lib, sheriklarning biri mablag' (sarmoya) beradi, ikkinchi taraf sherikchilik doirasida biznesni boshqaradi.
Mushoraka	Mulkiy sherikchilik bo'lib, unda ikki yoki bir nechta shaxs o'z omonatlarini umumiyl loyiha birlashtiradilar va ulushli ishtirok tartibida kompaniyani tashkil etadilar.
Murobaha	Bank yoki boshqa moliyaviy vositachi sotuvchidan mijoz uchun zarur bo'lgan aktivni sotib oladi va uni mijozga to'lov muddatini uzaytirish orqali ustama bilan sotadi.
Bay as-salam (Oldindan moliyalashtirish)	xaridor sotuvchiga kelishilgan tovar qiymatini avvaldan to'laydigan bitim hisoblanib, sotuvchi tovari ma'lum bir vaqt oralig'idan yetkazib berishni zimmasiga oladi.
Istisno (Islomiy derivativ)	ikki tamon: sotuvchi va xaridor o'rtafigi oldi-sotdi shartnomasi bo'lib, unga ko'ra xaridor buyurtma bo'yicha qurilishi yoki tayyorlanishi lozim bo'lgan mavjud bo'lmagan tovari sotib olishga rozilik bildiradi.
Ijara, Ijara val-iqtino (lizing)	Investor mijoz talab qilgan predmetni sotib oladigan va uni o'z mijoziga lizingga beradigan shartnomasi. Lizing yakunida ob'yeqt ijaraga oluvchiga sotilishi mumkin
Qarzi hasan	(Qaytish asosida moddiy yordam) foizsiz qarz
Amana (Ishonch)	so'zma-so'z "depozit qilingan narsa" degan ma'noni anglatadi. Amaliy islom banklarida omonat pulini anglatadi
Vadia (vakolatli shaxs vazifalarini bajarish)	bitimga binoan, bir tomon ikkinchi tomonga har qanday mulkni saqlash uchun topshiradi.
Takaful (sug'urta)	Islomiy sug'urta
Sukuk ("islomiy obligatsiya")	Mulk bilan ta'minlangan o'rta muddatli qimmatbaho qog'ozlar.

Yuqorida keltirilgan jadvaldan ko'rilib turibdiki, islom moliyasining barcha vositalari sherikchilik asosida yuritiladi hamda foyda va zarar ikki tamon zimmasida bo'ladi. Islom banklari birinchi navbatda savdo, lizing va pullik operatsiyalar hamda investitsiya faoliyati bilan shug'ullanadi. Islom banklari foiz olish maqsadida depozit olish va qarz berishlari mumkin emas. Islom banklari va ularning mijozlari o'rtafigi munosabatlarning mohiyati turli xil moliyaviy instrumentlar yoki shartnomalarga ko'ra farq qiladi.

Bugungi kunga kelib jahon islom moliya bozorida rivojlanishida Eron, Malayziya, Pokiston, Indoneziya, Arab mamlakatlaridan: Saudiya Arabistoni, Quvayt, Qatar, BAA, Baxrayn hamda Yevropa mamlakatlaridan: Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Lyuksemburg, AQSH davlatlari moliya tashkilotlari aktivlari yetarli darajada hissa qo'shmaqda. So'ngi 10-yillikda islom moliyasining yillik o'sish suratlari 15-17% ni tashkil qilmoqda. Quyidagi rasmida islom moliya aktivlari bo'yicha dunyoda yetakchi davlatlar keltirib o'tilgan (1-rasm).



**1-rasm:** Islomiy moliya aktivlari boʻyicha eng yetakchi mamlakatlar 2021-yil (trln. AQSH dollar) <sup>[12]</sup>

Islom moliya bozori aktivlari boʻyicha yetakchilikni Eron, Saudiya Arabiston, Malayziya, Birlashgan Arab Amirligi hamda Qatar egallab kelmoqda va ushbu davlatlar global islom moliya aktivlarining 88% tashkil etmoqda. Eron Islom moliya institutlarining va Islomiy fondlar aktivlari bazasi boʻyicha eng yirik mamlakat hisoblanadi. Saudiya Arabiston ikinchi oʻrinni egallab islom banklari aktivlari boʻyicha yetakchilikda kelmoqda. Malayziya esa kapital bozori rivojlanishi hamda sukuk (islomiy obligatsiya) emissiyasi boʻyicha eng yaxshi davlat qatoriga kiradi.

Bugungi kunga kelib, koʻplab rivojlanayotgan mamlakatlar Islom moliya sohasi rivojlanishiga turtki beradigan yangi strategiyalar, keng koʻlamlil milliy rejalar va yoʻl xaritalarini ishlab chiqmoqdalar. Bunday mamlakatlar qatoriga Saudiya Arabiston, Malayziya, Pokiston, Indoneziya, Qozogʼiston hamda mamlakatimiz Oʼzbekistonnini misol keltirishimiz mumkin (3-jadval).

**3-jadval:** Rivojlanayotgan mamlakatlarda islomiy moliyalashtirishni yanada rivojlanishish boʻyicha mayjud strategiyalar va loyihalar <sup>[13]</sup>

Mamlakat	Yoʻl xaritasi / Strategiya / Lohiya/Dastur	Koʻrib chiqilgan asosiy vazifalar
Saudiya Arabiston	2030-yilgacha boʻlgan davrda moliya sektorini rivojlanish dasturi	2025-yil uchun vazifalar belgilandi. Islomiy moliyalashtirish boʻyicha global aktivlarning 22,5 foiz ulushiga erishish vazifasi belgilandi
Malayziya	Moliya sektorining harakat rejası 2022–2026-yillar uchun	Islom moliya bozorida yetakchiligi orqali moliyaviy resurslarni yanada koʻproq jaib qilish rejası
Indoneziya	Islom bankchiligini rivojlanishish boʻyicha yoʻl xaritasi 2020–2025-yillar uchun	Islom banklarining moliyaviy xizmatlarini yanada takomillashtirish va ommabopligini oshirish
Pokiston	2021–2025-yillar uchun Islomiy bank sohasini rivojlanishish boʻyicha yoʻl xaritasi	Huquqiy sohani mustahkamlash, likvidlikni boshqarish tizimini takomillashtirish
Qozogʼiston	“Islom moliya Mutaxassis” Qozogʼiston Respublikasi uchun 2020–2025-yillarga moʼljallangan reja	2025-yilga kelib Islom moliyaviy aktivlar ulushini umumiy hajmda 3-5% gacha oshirish vazifasi qoʻyilgan
Oʼzbekiston	Oʼzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “Oʼzbekiston-2030” strategiyasi togʼrisida”gi PF-158-soni Farmoni	3 ta tijorat bankida islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etish, shuningdek, islomiy moliyalashtirish uchun qonunchilik bazasini shakllantirish belgilangan

Oʼzbekiston Respublikasi Prezidentining “Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi fondlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish va takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʼrisida”gi qaroriga muvofiq “Trastbank” XAB tashabbusi bilan “Trast Muamalat” MChJ shoʼba lizing kompaniyasi oʼz faoliyatini yoʻlga qoʻydi.



"Trast Muamalat" lizing kompaniyasining asosiy vazifalaridan biri amaldagi Qonunchilik doirasida "Murobaha (qismlarga bo'lib to'lash sharti bilan savdo qilish)" va "ijara (lizing)" samarali operatsiyalarini amalga oshirish orqali moliyaviy xizmatlarni kengaytirish strategiyasini amalga oshirish, shuningdek, xalqaro islom moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirishdan iborat.

"Trastbank" ning Islom taraqqiyot banki (ITB) guruhi bilan ko'p yillik muvaffaqiyatli hamkorligi "Trast Muamalat" MChJga Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha Islom Korporatsiyasining moliyalashtirish liniyalarini jaib qilish imkonini yaratdi. Bundan tashqari, rivojlanishning ushbu bosqichi kompaniyani jismoniy shaxslar, kichik va o'rta biznes loyihamalarini moliyalashtirishga, ularning faoliyatini kengaytirishga va yangi ish o'rnlari yaratishga turtki bo'ladi.

"Trastbank" XAB va XSRIK o'tasidagi hamkorlik 2018-yilda boshlangan bo'lib, bugungi kunga qadar jaib qilingan liniyalarning umumiy hajmi 37 million AQSH dollarini tashkil etmoqda [14].

O'zbekistonda hozirgi davrda Islom moliyaviy xizmatlar bilan bir qator tashkilotlar o'z faoliyatlarini yuritib kelmoqdalar, shu qatorda Islom taraqqiyot banking ICD kompaniyasi tashkil qilgan "Taiba Leasing" kompaniyasi, "Uzbek Leasing International", "Trust muamalat" kabi lizing kompaniyalari mijozlarga islamiy ijara hamda murobaha xizmatlarini taqdim etib kelmoqda. Undan tashqari mamlakatimizda 4 ta sug'urta kompaniyalari shariat talablariga javob beruvchi islamiy sug'urta xizmatlarini ko'rsatishni boshlashdi, bunga misol qilib "Apex Takaful", "Uzaro Yordam", "Asl Takaful" ("TEMIRYO'L SUG'URTA" AJ tomonidan tashkil etilgan) hamda "Gross Takoful" tashkilotlarini keltirishimiz mumkin. Ayni vaqtida respublikamizning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarida jiddiy islohotlar olib borilayotgani, monetar siyosat va bank-moliya tizimida ulkan o'zgarishlar bo'lib turgan zamonda islom moliyasini joriy qilish masalasini bugungi kun tartibiga kiritilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Mahalliy tadbirdorlar bilan moliya-investitsiya masalalari bo'yicha yaqindan ishlaydigan mutaxassislarining fikricha, islom moliyasi va Islomiy bank faoliyatiga mamlakatimizda qiziqish va talab katta ekanligini ko'rishimiz mumkin (2-rasm).



2-rasm: O'zbekistonda Islomiy moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talab [15]

Natijalardan ko'rinish turibdiki, to'g'ridan to'g'ri va onlayn shaklda o'tkazilgan so'rovnomada biznes subyektlarining 35%, jismoniy shaxslarning 65% diniy qarashlari sabab an'anaviy bank kredit xizmatidan foydalansligini bildirgan. Ishtirokchilarning 45% va 55% O'zbekistonda islom moliya muassasalari ish boshlasa yoki islom moliya xizmatlari taklif etilsa, uni tanlashga tayyor ekanligi ma'lum qilganlar.

O'zbekiston aholisining 93% yuqori qismi Islom diniga e'tiqod qiladi va e'tiqodi tufayli 15-20% yaqin aholi an'anaviy kreditlash tizimidan foydalanmayapti. 2020-yil boshida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi doirasida "O'zbekistonda islomiy moliya mahsulotlari tahlili" bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot va uning doirasida o'tkazilgan so'rovnama natijalariga ko'ra, bank kreditlaridan foydalananmaslikning asosiy sabablar sifatida avvalambor, diniy qarashlar, kreditlar bo'yicha yuqori foiz darajasi va kredit taqdim etish jarayoni murakkabligi ko'rsatilgan bo'lib, agar mamlakatda islom moliya muassasalari tashkil etilsa, yuqoridagi so'rovnomada ishtirok etgan qatnashuvchilarning aksariyati ushbu muassasa xizmatlardan foydalanshlari mumkinligini ta'kidlaganlar. Hatto, an'anaviy banklar ham O'zbekistonda islom moliya muassasalari tashkil qilish, moliya tarmog'ida halol va shaffof raqobat yuzaga kelishi, natijada mamlakatga sarmoyalar oqimi o'sishi va diversifikatsiyasiga olib kelishi haqida o'z fikrlarini bildirganlar.

O'zbekistonda islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etishdagi afzalliklar va imkoniyatlar quyidagicha keltirilgan:

1. Xorijdan kelayotgan investitsiyalar hajmini oshirish va diversifikatsiyalash;



2. Bank tarmog'ida halol va shaffof raqobat muhitini yaratish hamda bank tizimi aktivlarini diversifikatsiya qilish imkoniyatini yaratish;
3. Aholi va biznes vakillari ixtiyorida bo'lgan bo'sh pul mablag'larini iqtisodiyotga jalb qilish va ushbu mablag'larning iqtisodiyotdagi maksimal ishtirokini ta'minlash;
4. Mamlakat kapital bozorini takomillshtirish;
5. Yangi ish o'rinnarini yaratish;
6. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali, moliya bozoridagi faolligini oshirish;
7. Islom moliya xizmatlari sanoatini rivojlantirish orqali mamlakatda infratuzilmani muvofiqlashtirish va yangilash;
8. Kambag'allikka qarshi kurashish orqali davlat dasturini amalga oshirishga hissa qo'shish;
9. Yangi yo'nalishda mutaxassislar tayyorlash imkoniyatini yaratish.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, mamlakatimizda islom moliya tizimining an'anaviy moliya tizimi bilan o'zaro integratsiyasini ta'minlash orqali moliya bozorida raqobat muhitini yanada oshirish va iste'molchilar talablarini qondirishda islom moliya mahsulotlarini, xususan, an'anaviy banklar amaliyotiga joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, islomiy moliyalashtirish O'zbekiston iqtisodiyoti uchun yangi yo'nalish bo'lib, unga biznes tarafdan ham, aholi tomonidan ham ehtiyoj mavjud. Muqobil moliyalashtirish mahsulotlarining paydo bo'lishi aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanishga bo'lgan imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Lekin mavjud kutishlar Islomiy moliyalashtirish sohasida ehtimoliy mijozlarning tajribasi va bilimi yo'qligi sababli hamda bank va moliyaviy qonunchilikning yetarli darajada takomillashmagani bois, jiddiy tarzda buzib ko'rsatilishi mumkin. Musulmon mamlakatlarda shariat me'yorlarining bir xilda talqin etilmasligi, islomiy moliyalashtirish sohasida malakali mutaxassislarning yetishmovchiligi sharoitida islomiy moliyaviy mahsulotlarni tartibga solish bilan bog'liq xatarlar ham mavjud. O'zbekiston Islom moliya sohasi uchun juda istiqbolli davlatdir, chunki aholisining asosiy qismi musulmon bo'lib, kelajakda nafaqat Markaziy Osiyoda, balki dunyoda ham Islom moliya markaziga aylanishiga imkon yaratadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. ICD – Refinitiv Islamic Finance Development Report 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11 sentabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi tog'risida" gi PF-158-soni Farmoni. [lex.uz/docs/-/5371091](http://lex.uz/docs/-/5371091).
4. Muhammad Taqi Usmani "an Introduction to Islamic finance" Study guide. 2021 y. page 6.
5. R.I.Bekkin "Islom iqtisodiy modeli va zamon": "O'zbekiston" NMIU, 2019 y. 19 bet.
6. Astanakulov O. Islom moliya asoslar: taraqqiyot bosqichlari, istiqbollari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnalni. №5, sentabr-oktabr, 2021-y.
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/islom-moliyasi-va-banki>.
8. Astanakulov O. Islom moliya asoslar: taraqqiyot bosqichlari, istiqbollari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnalni. №5, sentabr-oktabr, 2021-y.
9. Grira, J., & Labidi, C. (2021). Banks, Funds, and risks in islamic finance: Literature & future research avenues. *Finance Research Letters*, 41, 101815. <https://doi.org/10.1016/j.frl.2020.101815>.
10. ICD – Refinitiv Islamic Finance Development Report 2022.
11. Muallif tomonidan o'rganilgan ma'lumotlar asosida tuzilgan.
12. ICD – Refinitiv Islamic Finance Development Report 2022.
13. Muallif tomonidan o'rganilgan ma'lumotlar asosida tuzilgan.
14. [https://trustbank.uz/uz/press\\_center/news/trustbank-xab-va-xususiy-sektorni-rivojlantirish-bo-yicha-islam korporatsiya-o-rtasida-kelishuv-im](https://trustbank.uz/uz/press_center/news/trustbank-xab-va-xususiy-sektorni-rivojlantirish-bo-yicha-islam-korporatsiya-o-rtasida-kelishuv-im).
15. Analysis of Islamic Financing Instruments in Uzbekistan" – UNDP Survey conducted in 2020.

# Yashi

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 3**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

**Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

